

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.K.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

FAYZULLAYEVA KAMOLA SUNNATILLO QIZI

**TO‘QIMACHILIK MATOLARI SELLYULOZASINI BOKIMYOVIY
MODIFIKATSIYALASH**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по химическим наукам**

Contents of dissertation for doctor of philosophy (PhD) on chemical science

Fayzullayeva Kamola Sunnatillo qizi To‘qimachilik matolari sellyulozasini biokimyoviy modifikatsiyalash	3
Файзуллаева Камола Суннатилло кизи Биохимическая модификация целлюлозы текстильных полотен	21
Fayzullayeva Kamola Sunnatillo kizi Biochemical modification of cellulose textile fabrics	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	42

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.K.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

FAYZULLAYEVA KAMOLA SUNNATILLO QIZI

**TO‘QIMACHILIK MATOLARI SELLYULOZASINI BOKIMYOVIY
MODIFIKATSIYALASH**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.PhD/K930 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rafikov Adxam Salimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxkamov Muzaffar Abdug'aprovich
kimyo fanlari doktori, professor

Jo'rayev Murod Maxmarajab o'g'li
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot:

**Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot
institute**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.K.04.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "5" III soat 15⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (0371) 716-68-05, faks: (0371) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (440-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy Tel.: (0371) 716-68-05, faks: (0371) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" II kuni tarqatildi.
(2026-yil "19" II daqi 31 - raqamli reestr bayonnomasi)


O.E. Ziyadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor


G.K. Otamuxamedova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d.

D.J. Bekchanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo‘ylab to‘qimachilik sanoatida keng qo‘llaniladigan kimyoviy jarayonlar materiallarni tayyorlash, boyitish va pardoqlash uchun kimyoviy reagentlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan katta miqdordagi sanoat chiqindilarini keltirib chiqaradi, bu esa atrof-muhitni sezilarli darajada ifloslantiradi. Shu munosabat bilan to‘qimachilik materiallarining polimerlarini, jumladan paxta sellyulozasini xavfsiz biologik modifikatsiya qilish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. To‘qimachilik materiallarini pardoqlashda kimyoviy jarayonlardan biokimyoviy jarayonlarga o‘tish istiqbollari to‘qimachilik materiallarini tayyorlash, bo‘yash va pardoqlash uchun ishlatiladigan fermentativ preparatlarning zaharliliigi va ekologik xavfining ancha pastligi bilan belgilanadi.

Jahonda tabiiy polimerlar va tolali xomashyoni fermentativ modifikatsiyalash, to‘qimachilik materiallarini biokimyoviy boyitish texnologiyasi bo‘yicha jadal izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu texnologiyalar tufayli ekologik toza va gigiyenik to‘qimachilik mahsulotlari yuqori samaradorlikka ega, atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan, aholi ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Fermentlar va reagentlarning minimal miqdoridan foydalangan holda sellyuloza to‘qimachilik materiallarini energiya va resurslarni tejalgan holda, selektiv biokimyoviy modifikatsiyalash jarayonlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasining to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sohasi qudratli va barqaror, ko‘p jihatdan mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmi va aholisining farovonligini belgilab beradigan sanoat tarmog‘iga aylandi. Sohani yanada rivojlantirish uchun noan‘anaviy, muqobil yondashuvlar, innovatsion, chiqindisiz, tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish zarur. Respublika to‘qimachilik sanoatini jadal rivojlantirishni ta‘minlash, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ularni yirik tashqi savdo bozorlariga yanada chiqarish bo‘yicha vazifalar 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan¹. Bu vazifalarni bajarishda, an‘anaviy va strategik tolali xomashyo – sellyulozani biokimyoviy modifikatsiyasi yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, ishlab chiqarishga joriy etish alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 2-sentabrdagi “To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-155-son Farmonlari, 2019-yil 16-sentabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453-son qarori, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026”-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. To‘qimachilik matolari sellyulozasini fermentativ modifikatsiyalash jarayonlarini, morfologiyasini va xossalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar bilan xorijda J. Cao, C. Meng C and H. Zhao, R. Bandopadhyay, U. Nimkar, J. Song, A. Hasanbeigi, L. Price va boshqa olimlar tomonidan o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasida paxta sellyulozasini fermentativ modifikatsiyalash bo‘yicha tadqiqotlar M.Z. Abdukarimova, I.A. Nabiyeva, D.B. Xudoyberdiyeva va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Matolarni kimyoviy pardoqlash jarayonlarida, turli fermentlar bilan ishlov berish orqali pardoqga tayyorlash intensivligining ortishi, reagentlar sarfining kamayishi va boshqa biologik jarayonlar imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Biroq turli tabiatli bo‘lgan bir nechta fermentlarni o‘z ichiga oluvchi ferment komplekslari qo‘llanilgan jarayonlar hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Kimyoviy modifikatsiyani biologik ishlov berish bilan birgalikda qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-4821091581 “Sellyulozali to‘qimachilik materiallarini biokimyoviy modifikatsiyalash” (2022-2024 yy.) mavzusidagi O‘zbekiston-Belorus xalqaro loyiha va FL-9024093557 “Polimer chiqindilarni ekologik tamoyillar asosida kompleks qayta ishlashning ilmiy va amaliy asoslari” (2025-2029 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: to‘qimachilik matosi sellyulozasini fermentlar kompleksi yordamida biokimyoviy modifikatsiyalash sharoitlari va samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta matosi sellyulozasi tarkibidagi ohorlovchi moddalar va qo‘shimchalarni turli fermentlar yordamida ajratib olish imkoniyatlarini aniqlash;

biokimyoviy modifikatsiya jarayonida sodir bo‘ladigan ta‘sirlashuvlarning sharoitlarini va sxemalarini aniqlash;

fermentlar va reagentlarni alohida va birgalikda ta‘siri samaradorligini ishlov beruvchi eritmaga ajralib chiqqan qand miqdori va matoning kapillyarligi bo‘yicha baholash;

an‘anaviy va biokimyoviy modifikatsiyaning sellyulozani tuzilishi, g‘ovakliligi, kristallanish darajasi, gigroskoplighi, fizik-kimyoviy xossalariga ta‘sirini aniqlash;

biokimyoviy modifikatsiya jarayonini sellyuloza matosini pardoqlash samaradorligiga bo‘yoqning tolaga singish darajasi, rang intensivligi, rangning barqarorligi va mustahkamligi orqali baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida paxta sellyulozasi va matosi, α -amilaza va lipaza fermentlari, aktiv bo'yovchi modda, sirt aktiv modda, kimyoviy reagentlar ($NaOH, H_2O_2, Na_2SiO_3, Na_2CO_3$) olingan.

Tadqiqotning predmetini to'qimachilik matolari sellyulozasiga biologik, an'anaviy va biokimyoviy ishlov berish orqali modifikatsiyalash sharoitlari, parametrlari, fermentlarning sellyuloza va uning qo'shimchalariga ta'sirlashuv jarayonlari, modifikatsiyalangan polimer materiallarning tarkibi, mikro va makrotuzilishi, morfologiyasi, fizik-kimyoviy, termik, gigienik, koloristik xossalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida fizik-kimyoviy tadqiqot usullari, to'qimachilik materiallarining fizik-mexanik xossalarini sinash usullari, IQ-Furye, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), element analiz, differensial-termik analiz (DTA), rentgenofazaviy analiz va texnologik usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta sellyulozasini biferment kompleksi va past konsentratsiyali ishqoriy eritma aralashmasi bilan biokimyoviy modifikatsiya qilish orqali matolarni pardoqlashga tayyorlash jarayonining jadallashtirilishi isbotlangan;

sellyulozani biokimyoviy modifikatsiyalash samaradorligini eritmaga ajralib chiqqan qandlarning umumiy miqdori va matoning kapillyarligi orqali tasdiqlanish imkoniyati aniqlangan;

kompleksdagi har bir ferment va reagentning sellyuloza tarkibidagi ohorlovchi kraxmal va boshqa qo'shimchalar bilan ta'sirlashuv reaksiyalarining sxemalari va optimal sharoitlari aniqlangan;

sellyulozani modifikatsiyalash usuli bilan tarkibi, tuzilishi, morfologiyasi, fizik-mexanik va termik xossalari, bo'yalish xususiyatining bog'liqliklari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta sellyulozasini fermentlar bilan biologik ishlov berishni hamda eritma tarkibiga ishqor kiritish orqali biokimyoviy ishlov berishni amalga oshirish rejimlari ishlab chiqilgan;

biokimyoviy modifikatsiyani matolarning tanda va arqoq yo'nalishlari bo'yicha mustahkamligi va nisbiy cho'ziluvchanligiga, kapillyar-g'ovokli tuzilishiga, ishqalanishga chidamliligiga va havo o'tkazuvchanligiga ijobiy ta'sir etishligi isbotlangan;

modifikatsiyalangan sellyuloza matolarining bo'yalish xususiyatlari o'rganilib, bir vaqtda α -amilaza, lipaza va natriy gidroksidi saqlagan eritma bilan ishlov berilganda aktiv bo'yoqlar sorbsiyasining yuqori bo'lishligi aniqlangan;

bo'yalgan mato namunalari asosiy ekspluatatsion xossalari, rang intensivligi va koordinatalari, ekspluatatsiya jarayonidagi turli tashqi omillarning ta'sirlariga barqarorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi fermentlar kompleksi bilan ishlov berishda olingan natijalarning biomodifikatsiyalash nazariyasiga va standart talablariga mosligi, fizik-kimyoviy tadqiqot usullari IQ-Furye, SEM, DTA, element va rentgenofazaviy analizlarni jalb qilgan holda tajribaviy tadqiqotlarning olib borilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta sellyulozasiga biferment kompleksi va ishqor eritmasi bilan ishlov berilganda modifikatsiyalash samaradorligi yuqori bo'lishligi, har bir reagentning sellyuloza tarkibidagi ohorlovchi va qo'shimcha moddalarga selektiv ta'sir etishining aniqlanganligi, biokimyoviy modifikatsiya matoning kapillyar-g'ovakli strukturasi optimallashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta sellyulozasini bifermentlar bilan biokimyoviy modifikatsiya qilish usulida an'anaviy usulda nisbatan ekologik bezarar reagentlarning kam miqdori va pastroq temperaturada matolarni pardoqlashga tayyorlashning jadallashtirilganligi, bo'yovchi moddalar sorbsiyasi, fiksatsiyasi va barqarorligining yuqori bo'lishligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'qimachilik matolari sellyulozasini biokimyoviy modifikatsiyalash, fizik-kimyoviy va amaliy xossalarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

paxta sellyulozasiga biologik fermentlar va natriy gidroksidi eritmalari bilan biokimyoviy ishlov berish usuli "TURON TEX" MChJ korxonasi pardoqlash bo'limida ishlab chiqarish jarayonida joriy etilgan ("O'ZTO'QIMACHILIKSANOAT" uyushmasining 2025-yil 19 sentabrdagi 2/25-2229 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada matolarni bo'yashga tayyorlash jarayonini jadallashtirish va fizik-mexanik xossalarini yaxshilash, jumladan uzilish kuchini 13-16% ga, kapillyarligini 13-17% ga oshirish imkoniyatini bergan;

paxta matosini bo'yashga tayyorlash jarayonini biokimyoviy jadallashtirish usuli "CLASS TEX PRODUCTION" MChJ korxonasi amaliyotga joriy etilgan ("O'ZTO'QIMACHILIKSANOAT" uyushmasining 2025-yil 19 sentabrdagi 2/25-2229 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, an'anaviy tayyorlangan matoga nisbatan biokimyoviy tayyorlangan matoning uzilish kuchi 11-24% ga, havo o'tkazuvchanligi 20-26% ga oshirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola bo'lib, shu jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon

etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Sellyulozani biologik modifikatsiyalash fermentlari va usullari**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid chop etilgan ishlar manbalari asosida ilmiy tadqiqot va tahlil natijalariga baho berilgan. To‘qimachilik materiallarini biokimyoviy modifikatsiyalash asoslari, to‘qimachilikda qo‘llaniladigan ayrim fermentlar va ularning xossalari, to‘qimachilik matolarini yakuniy pardozlashga tayyorlash jarayonlarini fermentlar ishtirokida intensivlashtirish muaammolarining hozirgi holati tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining “**Paxta sellulozasini biokimyoviy modifikatsiyalash va tadqiq etish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlarining tavsiflari, to‘qimachilik matolari sellulozasini biokimyoviy modifikatsiyalash usullari, modifikatsiyalangan paxta sellulozasini bo‘yash usuli, materiallar xossalari tadqiq etish usullari keltirilgan. Paxta matosi sellulozasining biologik va biokimyoviy modifikatsiyasi α -amilaza, proteaza, sellulaza va lipaza fermentlari eritmasida, shuningdek ushbu fermentlar va NaOH ni bir vaqtning o‘zida o‘z ichiga olgan eritmada suvli muhitda amalga oshirildi. Sellyuloza matosi namunalari 1:10 nisbatda eritmaga joylashtirilib, 30-60°C temperaturada, pH=3-10 da, 0,5-2,5 soat davomida ishlov berildi. Materiallarning xossalari tadqiq etish uchun eritmalar tarkibi va ishlov berish rejimlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Paxta matosi sellulozasini modifikatsiya qilish uchun tanlangan vanna tarkibi va ishlov berish sharoitlari

No	Reagentlar	Konsentratsiya, g/l	Temperatura, °C	Vaqt, min	Vanna moduli
An'anaviy usul					
1	Natriy silikat/natriy gidroksid/ sirt aktiv modda	5/5/1	90-95	60	1:30
Biologik usul					
2	α -amilaza	5	60	120	1:10
3	Lipaza	5	60	120	1:10
4	α -amilaza/lipaza	3/3	60	120	1:10
5	Proteaza	5	60	120	1:10
6	Sellulaza	5	60	120	1:10
7	Sellulaza/proteaza	3/3	60	120	1:10
8	α -amilaza/proteaza/lipaza	3/3/3	60	120	1:10
Biokimyoviy usul					
9	α -amilaza/lipaza/NaOH	2/2/2	60	120	1:10


Ishlov berilgandan barcha mato namunalari aktiv bo‘yovchi modda yordamida uzluksiz texnologiya bo‘yicha bo‘yaldi. Uzluksiz bo‘yash ikki bosqichda bajarildi, vanna moduli 1:30. Aktiv bo‘yovchi modda mato massasining 2% miqdorida olindi. Birinchi bosqichda namunaga 45°C da bo‘yovchi modda eritmasi bilan ishlov berildi,

ikkinchi bosqichda elektrolit sifatida natriy xlorid eritmasi qo‘shildi va umumiy ishlov muddati 30 daqiqa bo‘ldi.

Dissertatsiyaning “**Paxta matosi sellyulozasini biokimyoviy modifikatsiyalash natijalarining tahlili**” nomli uchinchi bobida tadqiqot natijalarini muhokama qilingan. Tolali massa elektrokinetik zaryadga va katta o‘ziga xos sirt maydoniga ega, shuning uchun butun sistemaning xususiyatlarida sirt hodisalarining ahamiyati katta. Ushbu hodisalarning ta’siri tolali massani suyultirish bilan kuchayadi.

Paxta matosi sellyulozasiga biokimyoviy ishlov berilganda fermentning tabiatiga ko‘ra mutlaqo turlicha jarayonlar sodir bo‘lishi mumkin. Ba’zi fermentlar bevosita sellyuloza bilan reaksiyaga kirishsa, boshqalari material tarkibidagi qo‘shimcha moddalar bilan ta’sirlashadi. Kimyoviy reagentlardan farqli ravishda fermentativ reagentlar uchun selektivlik, ya’ni substrat bilan ma’lum sxema bo‘yicha, yo‘naltirilgan holatda ta’sirlashish tavsiyalanadi. Ferment biokatalizator vazifasini bajaradi, substrat bilan oraliq kompleks birikmani hosil qiladi, parchalanish reaksiyasining aktivlanish energiyasini kamaytiradi.

Oxorlangan paxta sellyulozasining α -amilaza bilan reaksiyasi yuzasidagi kraxmalning gidrolizlanishiga olib keladi. Bu jarayonda u kichikroq qismlarga, asosan maltoza va dekstrin molekulalariga bo‘linadi. α -amilaza kraxmaldagi α -1,4-glikozid bog‘larini parchalaydi, β -glikozid bog‘lariga ta’sir ko‘rsatmaydi. Lipaza esa sellyuloza tolasi tarkibidagi mumsimon moddalarni parchalaydi (1-rasm).




1-rasm. Paxta sellyulozasini biokimyoviy modifikatsiya jarayoni

Sodir bo‘layotgan reaksiyalarning sxemasini va sellyulozaning mikrostrukturasini aniqlash maqsadida tadqiq qilingan to‘qimalar namunalariining IQ-Furye spektroskopik tahlillari o‘tkazildi. 2-rasmda dastlabki, boshlang‘ich, an’anaviy va biokimyoviy usullar bilan modifikatsiyalangan sellyuloza namunalariining IQ-Furye spektrlari keltirilgan.

Dastlabki namunaning IQ -Furye spektrida sellyuloza tarkibidagi bog‘larning valent (ν) va deformatsion (δ) tebranishlariga tegishli bo‘lgan yutilish chiziqlari kuzatiladi. 3333 va 3278 cm^{-1} da joylashgan keng absorbsiya chiziqlari gidroksil guruhining valent tebranishlariga ν_{O-H} mos keladi. 2901–2895 cm^{-1} oralig‘idagi chiziqlar uglerod–vodorod bog‘ining valent tebranishlariga δ_{C-H} to‘g‘ri keladi. 1606 cm^{-1} dagi chiziq karbonil aralashmalarining (qoldiq lignin, oqsillar) mavjudligi

bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin; $1425\text{--}1315\text{ cm}^{-1}$ oralig‘idagi chiziqlar vodorodning uglerod va kislorod bilan bog‘larini deformatsion tebranishlariga δ_{C-H} , ν_{O-H} mos keladi; $1200\text{--}1000\text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida polisaxarid matritsasi ν_{C-O} , δ_{C-O} tebranishlariga mos keluvchi aniq chiziqlar mavjud; 897 cm^{-1} atrofidagi xarakterli cho‘qqi sellyulozaning β -glikozid (β -1,4) bog‘lariga to‘g‘ri keladi.



2-rasm. Paxta matosining IQ-Furye spektri: A) dastlabki xom mato, B) an’anaviy ishlov berilgan, C) fermentativ ishlov berilgan


An’anaviy usulda ishlov berilgan namunaning IQ-Furye spektri: xarakteristik yutilish sohalari deyarli o‘zgarishsiz; $1200\text{--}1000\text{ cm}^{-1}$ oralig‘idagi cho‘qqilarning aniq va keskin ifodalanganligi strukturaning qisman kristallanish holatini bildiradi; 896 cm^{-1} dagi β -glikozid cho‘qqisining saqlanishi esa sellyulozaning asosiy tuzilmasi o‘zgarishsizligini ko‘rsatadi.

Biologik usulda ishlov berilgan namunada: 3333 cm^{-1} da ν_{O-H} chizig‘ining

intensivligi kamaygan; 1631 cm^{-1} dagi chiziqning yo‘qolishi karbonil aralashmalarining olib tashlanganligidan dalolat beradi; $1200\text{--}1000\text{ cm}^{-1}$ oralig‘idagi chiziqlarning intensivligi pasaygani va cho‘qqilarning siljishi sellyuloza matritsasi ν_{C-O} , δ_{C-O} tebranishlariga mos keluvchi aniq chiziqlar mavjud; 896 cm^{-1} dagi cho‘qqining saqlanishi esa β -1,4-sellyuloza tuzilmasining saqlanib qolganligini ko‘rsatadi.

Kuzatilgan o‘zgarishlar sellyulozadan ohor va boshqa aralashmalarni yanada to‘liqroq olib tashlash, shuningdek biologik ishlov berish jarayonida fazaviy holatning ma’lum darajada o‘zgarishi haqida dalolat beradi. Bu esa materialni bo‘yash jarayoni uchun qulay sharoit yaratadi.

IQ-Furye natijalariga ko'ra, sellyuloza namunasiga α -amilaza ta'sir ettirilganda ferment ohorlovchi sifatida qo'llanilgan kraxmalni gidroliz reaksiyasiga katalitik ta'sir ko'rsatadi, u glikozid bog'larini parchalaydi. Kraxmalning gidrolizi reaksiyasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:



Bu yerda:

$(C_6H_{10}O_5)_n$ – kraxmal, n – kraxmal zanjiridagi glyukoza birliklarining soni;


$(C_6H_{10}O_5)_m$ – dekstrin, m – dekstrin zanjiridagi glyukoza birliklarining soni;

$C_{12}H_{22}O_{11}$ – maltoza, $C_6H_{12}O_6$ – glyukoza, k – glyukoza molekulalarining soni.


Kraxmal tarkibida 70-80% (ba'zi makkajo'xori kraxmalida 95% gacha) amilopektin, 20-30% amiloza bo'ladi. Paxta matosiga an'anaviy usulda ishlov berish jarayoni $NaOH$, Na_2CO_3 , Na_2SiO_3 ishtirokida ishqoriy muhitda amalga oshiriladi. Bunda sellyuloza tarkibidagi yog'simon va mumsimon qo'shimchalar gidrolizlanib parchalanadi va suvda erib, chiqib ketadi. Ma'lumki, polisaxaridlar ishqoriy muhitda emas, kislotali muhitda gidrolizlanadi. Lekin kislotali muhitni qo'llash mumkin emas, chunki bunda kraxmal bilan birga sellyuloza ham gidrolizga uchrab, parchalanadi. Shuning uchun paxta sellyulozasiga an'anaviy usulda ishlov berilganda kalava iplarini to'qishdan avval ohorlash uchun qo'llanilgan kraxmalning bir qismi qolib ketadi va keyingi pardoqlash jarayonlarining normal borishligiga to'sqinlik qiladi.

α -Amilaza sellyulozaga ta'sir ko'rsatmaydi, aynan kraxmalning bosqichli gidrolizlanishiga katalitik ta'sir ko'rsatadi. U avvalambor kraxmalning amilopektini tarkibidagi α -1,6-glikozid bog'larini parchalaydi, suvda eriydigan chiziqli dekstrinlarni hosil qiladi. So'ngra α -1,4-glikozid bog'larini parchalaydi, bu esa kraxmalning to'liq gidrolizlanishiga, maltoza va glyukoza molekulalarining hosil bo'lishiga olib keladi. Dekstrin kraxmalning qisman gidrolizlangan mahsuloti, maltoza va glyukozadan kattaroq, lekin kraxmaldan ancha kichikroq, ya'ni $m \ll n$. α -Amilaza ta'sirida dekstrinlar maltozaga, maltoza esa glyukozagacha parchalanadi.


Fermentli qayta ishlashning samaradorligi ishlov berish vaqtida eritmaga ajralib chiqqan shakar moddalarning miqdori va ishlov berilgan mato namunalariining kapillyarligi bo'yicha aniqlandi. Tadqiqotda paxta matosiga α -amilaza fermenti turli konsentratsiyalarda, harorat, eritmaning pH qiymati va ishlov berish muddati o'zgaruvchan sharoitlarda qo'llanilib, ishlov berish jarayonlari o'tkazildi. Matoning kapillyarligi va biologik ishlov berishdan keyin eritmada hosil bo'lgan shakar miqdorining α -amilaza konsentratsiyasiga bog'liqligi aniqlandi (3-5 rasm). Ushbu bog'liqliklardan ferment konsentratsiyasi 2,5-3,0 g/l, muhit pH=6,0-7,0, temperatura 55-60°C bo'lganda 1,5-2,0 soat davomida fermentativ ishlov berish yuqori samaradorlikka erishishligi ma'lum bo'ldi.



3-rasm. Eritmaga ajralgan qand miqdorini (A) va matoning kapillyarligini (B) α -amilaza konsentratsiyasiga bog'liqligi. $T = 32^{\circ}\text{C}$, $\text{pH} = 6$, ishlov berish vaqti: $\tau = 4$ soat




4-rasm. Eritmaga ajralgan qand miqdorini (A) va matoning kapillyarligini (B) muhit pH ko'rsatkichiga bog'liqligi. $T = 32^{\circ}\text{C}$, $C(\alpha\text{-amilaza}) = 3,0 \text{ g/l}$, $\tau = 4$ soat



5-rasm. Eritmaga ajralgan qand miqdorini (A) va matoning kapillyarligini (B) temperaturaga bog'liqligi. $\text{pH} = 6,0$; $C(\alpha\text{-amilaza}) = 3,0 \text{ g/l}$, $\tau = 4$ soat

40-55°C temperatura intervalida qand moddalari hosil bo'lish tezligining o'zgarishi asosida paxta sellyulozasini α -amilaza vositasida modifikatsiya reaksiyasining aktivlanish energiyasini hisoblandi (6-rasm). Haroratning oshishi bilan jarayon tezligining o'sish sur'ati yuqori emas. Jarayonning boshida 40-60 daqiqagacha qandning ajralib chiqish tezligi chiziqli ravishda oshadi, keyin jarayon tabiiy ravishda sekinlashadi. To'g'ri chiziqli kesma ma'lumotlaridan reaksiya tezligi logarifmining haroratning teskari qiymatiga bog'liqligi tuzildi. Olingan to'g'ri chiziqning og'ish burchagi tangensidan reaksiyasining aktivlanish energiyasi hisoblab chiqildi, u $E = 17 \pm 2 \text{ kJ/mol}$ ga teng bo'ldi.

Aktivlanish energiyasining kichikligi shuni ko'rsatadiki, fermentativ ohorsizlanish jarayoni nisbatan past temperaturalarda energiya jihatidan qulay sharoitlarda amalga oshiriladi.



6-rasm. Vaqt davomida ajralib chiqqan qand miqdorini (A) va reaksiya tezligini (B) temperaturaga bog'liqligi. pH = 6,0, C(α -amilaza) = 3,0 g/l

Tabiati har xil bo'lgan bir nechta fermentlarni o'z ichiga olgan ferment komplekslari asosidagi jarayonlar hali yetarli darajada o'rganilmagan. Shu boisdan, keyingi tadqiqotning maqsadi paxta matosi sellyulozasini bo'yashga tayyorlash jarayonini ikki turdagi fermentlardan iborat aralashma yordamida yaxshilash hamda matoning bo'yalishga doir xususiyatlarini oshirishdan iborat bo'ldi.

Nazorat guruhidagi matolarga an'anaviy soda-sovunli usulda, alohida α -amilaza, lipaza hamda α -amilaza/lipaza kombinatsiyasi bilan ishlov berildi. Ishlov berilgan eritmalar tahlil qilinib, ularning tarkibidagi shakar miqdori aniqlandi (2-jadval), matolarning kapillyarlik ko'rsatkichlari aniqlandi (7-rasm).

2-jadval


Paxta sellyulozasini turli reagentlar bilan modifikatsiyalash jarayonida eritmaga ajralib chiqqan qand moddalari miqdori

Reagentlar, ishlov berish usuli	An'anaviy	Lipaza	α -amilaza	α -amilaza/lipaza	α -amilaza/lipaza/NaOH
Tiklangan qand moddalari miqdori, mg/l	113±1	119±1	132±2	131±4	139±2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, α -amilaza/lipaza/NaOH kompleksi ishtirokida tiklangan qand moddalari miqdori eng yuqori bo'lib, bunda α -amilaza NaOH yordamida kraxmalni parchalaydi va katta miqdorda qand ajralib chiqadi. Sellyuloza matoning yuzasidan qo'shimcha mahsulotlarning yo'q qilinishi fermentlarning katalitik ta'siri ostida polisaxaridlar, oqsillar va yog'li-mumli moddalarning gidrolizlanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ferment bilan ishlov berilgan matoning kapillyarligi sezilarli darajada oshdi, bu esa ohorlash agenti va unga bog'liq bo'lgan sellyuloza moddalari olib tashlangani bilan izohlanadi. Mato yagona ferment yoki ikki komponentli ferment bilan ishlov

berilganda, uning kapillyar balandligi an'anaviy usulda ishlov berilgan matodan yuqori bo'ldi, bu ferment bilan ishlov berishning kraxmal ohorini olib tashlashda an'anaviy ishqorli reagentlarga nisbatan ustunligini ko'rsatadi.




7-rasm. Paxta matosi namunalari kapillyarligini ishlov berish usuliga bog'liqligi: (a) an'anaviy usul; (b) lipaza; (c) α -amilaza; (d) α -amilaza/lipaza; (e) α -amilaza/lipaza/NaOH.

α -Amilaza/lipaza/NaOH kompleks reagent bilan ishlov berilgach, paxta matoning kapillyar balandligi maksimal darajaga yetdi. Ushbu tarkib kraxmal ohori, mumli va oqsil moddalari kabi

paxta matodagi asosiy qo'shimcha moddalarning parchalanishiga olib keldi. Faqat lipaza bilan ishlov berilgan matoda kapillyar balandlik α -amilaza tarkibidagi reagent bilan ishlov berilgan matoga nisbatan ancha past bo'ldi, chunki lipaza asosan mato yuzasidagi mumli moddalarni olib tashladi, ammo kraxmalni olib tashlashga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

Biomodifikatsiyalangan sellyuloza aktiv bo'yovchi modda bilan bo'yaldi, bo'yovchi modda bilan ta'sirlashuv tavsifini aniqlash maqsadida IQ-Furye spektroskopik tadqiqotlar bajarildi (8-rasm).




8-rasm. Bo'yovchi modda (A) fermentativ ishlov berilgandan so'ng bo'yalgan paxta sellyulozasini (B) IQ-Furye spektri

Bo'yovchi moddaning IQ-Furye spektrida quyidagi yutilish sohalari kuzatiladi: 3406 cm^{-1} da ν_{O-H} va ν_{N-H} ; xromofor guruhlari $\nu_{C=O}$ va $\nu_{C=N}$ bog'lari tebranishlariga mos keladigan 1756 cm^{-1} va 1607 cm^{-1} sohada; $1540-1330 \text{ cm}^{-1}$ sohadagi yutilish δ_{C-H} , δ_{O-H} , δ_{N-H} deformatsion tebranishlariga mos keladi;

1250-900 cm^{-1} sohada ν_{C-O} , ν_{C-N} , δ_{C-O} δ_{C-N} ; 752, 797 cm^{-1} sohada ν_{C-Cl} namoyon bo'ladi.

Biomodifikatsiyadan so'ng bo'yalgan namunaning spektrida 3334 va 3287 cm^{-1} sohadagi yutilish yo'lklarining intensivligi va kengligi yangi molekulalararo bog'lar hisobiga oshgan; 1756, 1607, 752, 797 cm^{-1} (ν_{C-Cl}) sohalardagi xromofor guruhlarining yutilish yo'lklari yo'qoladi. Demak, bo'yovchi modda bilan sellyuloza degidroxlorlash reaksiyasi hisobiga yangi C-O kovalent bog' orqali bog'lanadi. Biomodifikatsiya jarayonida sellyuloza yuzasidan ohorlovchi va qo'shimcha moddalarni to'liq chiqarilganligi bo'yoq molekulalarining sorbsiyasi, tarqalishi va kimyoviy bog'lanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Paxta sellyulozasi morfologiyasi (9-rasm) shuni ko'rsatadiki, dastlabki tolalar yuzasi asosan kraxmaldan iborat ohorlovchi agent bilan qoplangan. An'anaviy usulda ishqorli reagentlar bilan ishlov berilgach, tolalar yuzasidagi ba'zi qo'shimchalar chiqarib yuborilgan. α -Amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan tolalar silliq va qo'shimchalardan holi bo'lib, α -amilaza/lipaza/NaOH tizimi tolalar yuzasidagi qo'shimchalarni samarali olib tashlash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi, bu esa bir xilda bo'yashni ta'minlash uchun asos yaratadi. Shu sababli, bo'yalgandan keyingi tolalar yuzasida bo'yoq zarrachalari teng taqsimlangan holda namoyon bo'ladi.




9-rasm. Fermentativ ishlov berilgan paxta matosining SEM tasvirlari. a) dastlabki xom paxta matosi; b) an'anaviy ishlov berilgan mato; c) α -amilaza/lipaza/NaOH; d) an'anaviy ishlov berilgandan so'ng bo'yalgan paxta matosi; e) α -amilaza /lipaza/NaOH kompleksi bilan ishlov berilgandan so'ng paxta matosi

Paxta tolalarining bo'yash samaradorligi sellyuloza matritsasidagi kristallik sohasi ortishi bilan kamayadi. Sellyulozaning amorf hududi bo'yoqlarni singdirish va diffuziyasini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.


Modifikatsiya jarayoni sellyuloza asosidagi to'qimachilik materiallarining kristallik strukturasi o'zgarishiga olib kelishi mumkinligi sababli, α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan va bo'yalgan paxta matoning rentgen nurlari diffraksiya (XRD) egri chizig'i sinovdan o'tkazildi (10-rasm). Xom paxta matoning egri chizig'i asosan 22,89°, 43,67° va 64,04° burchaklarida rentgen nurlari diffraksiyasini ko'rsatib, sellyuloza I turi kristallik strukturasi (asosiy I β subtipi) ni

aks ettiradi. α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan paxta mato va bo‘yalgandan keyingi matoning rentgen nurlari diffraksiya burchaklarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi.



10-rasm. Rentgen-fazaviy taxlil:
 a) dastlabki mato;
 b) α -amilaza/lipaza/NaOH kompleksi bilan ishlov berilgan paxta mato; kompleks bilan ishlov berilgandan so‘ng bo‘yalgan paxta mato

Rentgen diffraksiya egri chizig‘iga asoslanib, matoning kristallik darajasi hisoblandi (11-rasm). Undan ko‘rinib turibdiki, paxta mato α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgandan keyin sellyuloza tolalarining kristallik darajasi biroz kamaygan. Bu tolalardagi amorf sohaning biroz ko‘payganligini bildiradi, bu esa matoning bo‘yash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Keyinchalik mato bo‘yalgandan so‘ng, kristallik darajasi xom matoning darajasiga yaqinlashdi. Bu, ehtimol, bo‘yovchi moddaning kristallik strukturasi ega bo‘lib, sellyulozaning amorf sohasiga singib ketganligi bilan izohlanadi.



11-rasm. Sellyulozaning rentgen kristallanish darajasi. a) dastlabki paxta mato; b) α -amilaza/lipaza/NaOH; c) α -amilaza/lipaza/NaOH kompleksi bilan ishlov berilgandan so‘ng bo‘yalgan

Bo‘yalgan namunaning rang intensivligini asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan K/S qiymati optik tamoyillar asosida miqdoriy ifodalaydi. 3-jadvalga ko‘ra, α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan paxta matoning K/S qiymati eng yuqori bo‘lib, bu matoning bo‘yoq chuqurligi eng katta va bo‘yoq effekti eng aniq ekanligini ko‘rsatadi.


3-jadvalda berilgan CIEL^{*}a^{*}b^{*} sistemasidagi rang koordinatalari bo‘yalgan namunalardagi L^{*} - rang yorqinligi; a^{*} - qizil-yashil va b^{*} - sariq-ko‘k rang koordinatalari; C^{*} - rang to‘yinuvchanligi; h[°] - tang chuqurligi; K/S – rang intensivligi ko‘rsatkichlari keltirilgan. α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan paxta mato an‘anaviy reagentlar bilan ishlov berilgandan sezilarli darajada yuqori yorqinlik, rang chuqurligi va to‘yinganlik ko‘rsatgan.

3-jadval

Fermentativ ishlov berilgan va bo‘yalgan paxta matosining rang ko‘rsatkichlari

Reagentlar	K/S	L*	a*	b*	C	h
An'anaviy ishlov berilgan	1,3±0,5	71,7±0,5	40,3±0,9	14,0±1,0	47,1±1,3	15,6±0,9
α-amilaza	2,0±0,5	76,8±2,0	42,3±1,7	46,2±1,2	62,0±1,5	16,5±1,5
Lipaza	2,9±0,3	75,9±2,5	42,0±1,0	50,4±1,5	66,1±0,3	47,7±0,6
α-amilaza/lipaza	3,9±0,1	79,0±3,0	43,4±1,0	50,6±2,0	69,0±1,5	48,2±1,6
α-amilaza/lipaza/NaOH	3,9±0,4	80,0±1,0	45,2±2,0	53,0±3,0	69,7±3,0	51,0±3,0

Ishlov berilgan matoning rang koordinatalaridagi o‘zgarish (ΔE) besh marta yuvilgandan so‘ng hisoblab chiqildi. 12-rasmdan ko‘rinib turibdiki, biokimyoviy ishlov berilgandan so‘ng bo‘yalgan paxta matoning ΔE qiymati past bo‘lib, bu matoning suv bilan yuvilgandan keyin rang o‘zgarishining kamroq ekanligini va bo‘yoq bilan mato orasidagi bog‘lanishning yanada barqarorligini anglatadi.



12-rasm. Turli usullarda ishlov berilgandan so‘ng bo‘yalgan paxta matosining rang farqlanishi (ΔE):
 a) an'anaviy ishlov berilgan;
 b) α-amilaza; c) lipaza; d) α-amilaza/lipaza;
 e) α-amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan

Mato rangining mustahkamligi mato bo‘yalishi sifatini baholash uchun asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu matoning asl rangini saqlab qolish va yuvish, quyosh nuri ta’siri, ishqalanish, ter izlari kabi turli foydalanish va atrof-muhit omillariga nisbatan rang barqarorligini saqlash hamda ifloslanishga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidir. (4 va 5 jadvallar).

4-jadval

Fermentativ ishlov berilgan va bo‘yalgan paxta matoning ishqalanishga chidamliligi.

Tayyorlash usullari	Quruq ishqalanishga nisbatan rang chidamliligi	Ho‘l ishqalanishga nisbatan rang chidamliligi
An'anaviy ishlov berilgan	4,5/4	4/4,5
α-amilaza	5/5	5/4,5
Lipaza	5/4	4/5
α-amilaza/lipaza	5/4,5	5/4,5
α-amilaza/lipaza/NaOH	5/5	5/5

4-jadvalga ko‘ra, α-amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan matoning quruq ishqalanishga nisbatan rang mustahkamligi boshqaruv guruhidagiga teng darajada bo‘ldi. Shu bilan birga, nam ishqalanishga nisbatan rang mustahkamligi ishqoriy reagentlar bilan ishlov berilgan matodan yaxshiroq bo‘ldi. Ishqalanishga qarshi rang mustahkamligi selluloza tolalarining g‘ovaklarida bo‘yoqning mustahkam o‘rnashish darajasini ifodalaydi. Ferment yordamida ishlov berilgan matodagi tolalarning g‘ovaklari kattaroq bo‘lgani uchun bo‘yoq yanada mustahkamroq o‘rnashdi va rang mustahkamligi yaxshilandi.

5-jadval

Fermentativ ishlov berilgan va bo‘yalgan paxta matoning ter, sovun va yorug‘likka chidamliligi

Tayyorlash usullari	Ter ta‘siriga qarshi rang chidamliligi	Sovun ta‘siriga qarshi rang chidamliligi	Yorug‘lik ta‘siriga rang chidamliligi
An’anaviy ishlov berilgan	5/4,5/4	4/5/4,5	4,5
α -amilaza	5/5/5	5/5/5	5
Lipaza	4/4/4,5	4/4/5	5
α -amilaza/lipaza	4/4,5/5	5/4	5
α -amilaza/lipaza/NaOH	5/5/5	5/5	5

5-jadvalga ko‘ra, α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan matoning ter, sovun va ta‘siriga nisbatan rang mustahkamligi boshqa matolarnikidan yuqoriroq bo‘ldi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, paxta matoni α -amilaza/lipaza/NaOH tizimi yordamida ishlov berish nafaqat mato yuzasidagi qo‘shimchalarni samarali olib tashlaydi, balki bo‘yovchi moddaning mustahkamligini oshirib, paxta matosining chidamliligini ta‘minlaydi.

Fermentlar bilan ishlov berilgan matoning fizik-mexanik xossalari 6-jadvalda ko‘rsatilgan. Xom mato yoki ishqorli reagentlar bilan ishlov berilgan matoga nisbatan, turli fermentlar bilan ishlov berilgan paxta matoning yuza zichligi va havo o‘tkazuvchanligi yaxshilangan. Bundan tashqari, α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan matoning ishqalanishga chidamliligi, shuningdek, tanda va arqoq yo‘nalishlarida uzilish kuchi sezilarli darajada oshgan.

6-jadval

Fermentativ ishlov berilgan va bo‘yalgan paxta matoning fizik va mexanik xususiyatlari

Reagentlar	Yuza zichligi (g/m ²)	Havo o‘tkazuvchanlik (cm ³ /cm ² ·s)	Ishqalanishga chidamlilik (ming sikl)	Uzilish kuchi, (N)		Uzilishdagi cho‘zilishi (mm)	
				Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq
Xom mato	150,3±2,1	45,4±3,2	9±0,4	225±3	232±9	17±0,7	16±0,6
An’anaviy usul	154,2±3,4	46,7±2,1	10±0,3	235±5	242±6	32±1,5	25±1,0
α -amilaza	161,7±6,9	55,5±1,6	10±0,4	247±3	268±7	33±1,7	34±1,5
Lipaza	164,5±6,2	54,8±1,2	10±0,5	257±4	267±6	32±1,4	32±1,3
α -amilaza/lipaza	165,2±5,5	56,7±0,9	10±0,5	258±5	280±8	35±1,5	33±1,0
α -amilaza/lipaza/NaOH	168,6±6,3	58,9±5,1	11±0,5	262±6	300±8	38±1,8	34±1,1

Tolalar yuzasidagi qo‘shimchalar mato makrotuzilmasining defekti sifatida destruksiya aktiv markaziga aylanadi, mexanik ta‘sirlar natijasida matoning uzilishi va parchalanishiga sababchi bo‘ladi. Biokimyoviy modifikatsiya natijasida qo‘shimchalardan tozalangan materialning mexanik mustahkamligi ishlov berilmagan yoki an’anaviy usulda ishlov berilgan namunalarnikidan yuqori bo‘ladi.

XULOSA

1. To‘qimachilik materiali sellyulozani fermentlar yordamida biokimyoviy modifikatsiya qilish mato ishlab chiqarishda yangi texnik, ekologik va iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi. Kimyoviy ishlov berishdan oldin paxta matosini ohorsizlantirish uchun α -amilaza fermentidan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega: minimal reagent sarfi bilan yuqori darajadagi ishlov berishga erishish; jarayonni neytral muhitda amalga oshirish; ishlov berishni nisbatan past temperaturada va kichik aktivlanish energiyasi bilan energetik afzal sharoitda amalga oshirilishi.

2. Paxta matosi sellyulozasiga biokimyoviy ishlov berilganda α -amilaza fermenti kraxmal gidrolizi reaksiyasining, lipaza fermenti esa yog‘ va mumsimon moddalar gidrolizi reaksiyasining biokatalizatori vazifasini bajaradi, substrat bilan faol oraliq kompleks birikmani hosil qiladi, parchalanish reaksiyasining aktivlanish energiyasini kamaytiradi. Kraxmalning parchalanishi natijasida avval dekstrinlar, so‘ngra maltoza va keyin glyukozaga hosil bo‘ladi. Tarkibida har biri 1,5-2,0 g/l dan α -amilaza, lipaza va natriy gidroksidi saqlagan fermentativ kompleks bilan reaksiya muhit $\text{pH}=6,0-7,0$, temperatura $50-55^{\circ}\text{C}$ bo‘lganda 1,5-2,0 soat davomida ishlov berish paxta sellyulozasini pardozlashga tayyorlash samaradorligi yuqori bo‘lishligini ta’minlaydi.

3. Fermentlar va reagentlarni alohida va birgalikda ta’siri samaradorligini baholashning tezkor va qulay usuli – ishlov beruvchi eritmaga ajralib chiqqan qand miqdori va matoning kapillyarligini aniqlash ekanligi ko‘rsatildi. α -amilaza/lipaza/NaOH kompleksidagi tiklangan qand miqdori eng yuqori, ya’ni 139 ± 2 mg/l bo‘lib, bu ko‘rsatkich an’anaviy usul bilan ishlov berilgan matoga nisbatan 1,2 marta katta; kapillyarligi esa 155 ± 5 mm bo‘lib, bu ko‘rsatkich an’anaviy usul bilan ishlov berilgan matoga nisbatan 2,0 marta ortiq ekanligi aniqlandi.

4. Biokimyoviy usulda ishlov berilgan paxta sellyulozasining strukturasi, morfologiyasi an’anaviy usulda ishlov berilganga nisbatan yaxshilangan, sellyuloza matritsada amorf soha maydoni, shunga mos ravishda matoning g‘ovakliligi ortgan. Ishlov berilgan matolarning termik barqarorligi oshgan, qo‘shimcha moddalar miqdorining kamayganligi hisobiga parchalanish reaksiyalarining issiqlik effektlari kamaygan. Biokimyoviy modifikatsiya qilingan materiallarning mexanik mustahkamligi 2–13% ga ortgan.

5. Paxta sellyulozasiga biologik fermentlar bilan ishlov berish matoning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uning bo‘yalish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. An’anaviy sovun-soda bilan ishlov berilgan paxta matosiga nisbatan, α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berilgan matoda rang intensivligi yuqori bo‘lib, ishqalanishga, ter ta’siriga, sovun eritmasiga va yorug‘lik ta’siriga nisbatan rang barqarorligi ancha yuqori bo‘ldi. α -amilaza/lipaza/NaOH bilan ishlov berish jarayoni paxta matosiga yumshoq va ekologik xavfsiz biomodifikatsiya usuli bo‘lib, keng qo‘llanilish salohiyatiga ega istiqbolli texnologiya hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2025.27.12.К.04.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ФАЙЗУЛЛАЕВА КАМОЛА СУННАТИЛЛО КИЗИ

**БИОХИМИЧЕСКАЯ МОДИФИКАЦИЯ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ТЕКСТИЛЬНЫХ
ПОЛОТЕН**

02.00.06 – Высокмолекулярные соединения

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Чирчик – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1.PhD/K930

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Рафиков Адхам Салимович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Махкамов Музаффар Абдуганпорович
доктор химических наук, профессор
Жураев Мурод Махмаржаб угли
доктор философии по химическим наукам
(PhD)


Ведущая организация:

Ташкентский научно-исследовательский институт химической технологии


Защита диссертации состоится « 5 » III 2026 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.01/2025.27.12.K.04.04 при Чирчикском государственном педагогическом университете (Адрес: 111720, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Амир Темура, 104. Тел.: (0371) 716-68-05, факс: (0371) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического института (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амир Темура, 104. Тел.: (0371) 716-68-05, факс (0371) 716-68-11 (зарегистрирована за № 440)).

Автореферат диссертации разослан « 19 » II 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 31 от « 19 » II 2026 года).


О.С. Зиядуллаев
Председатель Ученого совета по
присуждению ученых степеней,
д.х.н., профессор


Г.К. Отамухамедова
Ученый секретарь Ученого совета по
присуждению ученых степеней,
д.х.н.


Д.Ж. Бекчанов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученым степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Химические процессы, широко применяемые в текстильной промышленности во всем мире, приводят к образованию большого количества промышленных отходов, связанных с использованием химических реагентов для подготовки, обогащения и отделки материалов, что существенно загрязняет окружающую среду. В связи с этим возрастает интерес к реализации возможностей безопасной биологической модификации полимеров текстильных материалов, в том числе хлопковой целлюлозы. Перспективы перехода от химических к биохимическим процессам в отделке текстильных материалов определяются существенно меньшей токсичностью и экологической безопасностью ферментных препаратов, используемых для подготовки, крашения и отделки текстильных материалов.

В мире ведутся интенсивные исследования технологий ферментативной модификации природных полимеров и волокнистого сырья, биохимического обогащения текстильных материалов. Благодаря этим технологиям обеспечивается производство экологически чистой, гигиеничной и востребованной текстильной продукции с высокой эффективностью, минимальным ущербом для окружающей среды. Особое внимание уделяется процессам селективной, энергосберегающей биохимической модификации целлюлозных текстильных материалов с использованием минимального количества ферментов и реагентов.

В настоящее время текстильная и швейно-трикотажная промышленность Республики Узбекистан превратилась в мощную и устойчивую отрасль, во многом определяющую размер валового внутреннего продукта страны и благосостояние ее населения. Для дальнейшего развития отрасли необходимо внедрение нетрадиционных, альтернативных подходов, инновационных, безотходных, экономичных и экологически чистых технологий. Задачи по обеспечению опережающего развития текстильной промышленности республики, расширению производства высококачественной и конкурентоспособной готовой продукции, а также возрастанию доли экспортной продукции изложены в Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы¹. В решении этих задач особое значение имеет проведение широких исследований и внедрение в производство биохимической модификации традиционного и стратегического волокнистого сырья – целлюлозы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-155 от 2 сентября 2023 года «О дополнительных мерах по финансовой поддержке текстильной

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы”

